

SHARHLASH – JURNALISTIKANING ASOSIY JANRLARIDAN BIRI**Saparboyev Jahongir Alimbay o'g'li***QDU Jurnalistika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jurnalistikaning asosiy janrlaridan biri bo'lgan sharhlar janri haqida so'z boradi. Mazkur janrning boshqa janrlar bilan mazmuniy ahamiyati, farqi va asosiy xususiyatlari ifoda etilgan. Ayniqsa, sharhlar janrining bugungi kundagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, sharhning va sharhlar janrining jamiyatdagi o'рни haqida ham so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ocherk, tele-radio, matbuot, sharh, izoh, bayon qilish, sport, siyosiy.*

KIRISH

Barchamiz kundalik hayotimizda futbol ko'ramiz, qabul qilingan normativ hujjatlarning ma'ruzalarini tinglaymiz. Bunda har bir sharhlovchining so'zlariga alohida e'tibor qaratamiz. Sharhlar bizga qaysidir ma'noda osondek tuyiladi, ammo siz-u biz o'ylagandek emas. Har bir soha egalarining faoliyatining mashqatli ekanini shu sohada bir kun faoliyat yuritib ko'ribgina bilib olamiz. Aslida, sharh o'zi nima? Qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

“Sharh” so'zi arabcha so'z bo'lib, o'zbekchasi “izohlash”, “bayon qilish”, “tushuntirish”, kabi ma'nolarni anglatadi. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”da sharh so'zining ma'nosi izohdan tashqari anglatish, bildirish, xabardor qilish, bayon etish ma'nolari ham berilgan. Demak, sharhlar Alisher Navoiy yashab, ijod qilgan davrda ham bo'lgan. Ya'ni Xonlar, hukmdorlar chiqargan farmonlarni oddiy fuqarolarga yetkazishda ham sharhlar bo'lgan. Bu janr o'sha paytdan hozirgi davrga kelib ancha rivojlangan. Mazkur janrdan ko'pincha, sport jurnalistlari ko'proq qo'llanadilar. Sportning barcha turlaridan o'tkazilayotgan olimpiada, musobaqa, turnirlarni yoritib berishdilar. O'zbekistonda zamonaviy jurnalistikamizda sport jurnalistlari ko'p, ammo bitta ayol sport jurnalisti bor, ya'ni Hilola Isoqova. O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universitetini tomomlagan hamkasbimiz hozirda MY5 telekanalida faoliyat yuritadi, uning faoliyatiga nazar tashlasak, ko'pincha faqat sportga taalluqli mavzularni yoritib boradi, sharhlaydi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy dunyo jurnalistikasida ko'pincha quyidagi to'rtta janrdan ko'p foydalaniladi:

- Yangilik, xabar;
- Tahliliy maqola;
- Ocherk;
- Sharh;

Bugungi kunda O'zbek jurnalistikasida sharh janrining o'rne alohida. O'zbekiston aholisining yarmidan ko'pi futbol ko'radi, sport sharhlarini tomosha qiladi. Albatta, bu ham o'z navbatida, sharh janrining faoliyati kengayishiga asos bo'ladi.

Ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, sharh janrining ikkita turi mavjud: birinchisi kitob sharhi, ikkinchisi matbuot-OAV sharhi. Kitob sharhi antik davrlarda ham, o'rta asrlarda ham keng rivojlangan. O'sha paytlarda gazallarga, she'rlarga, matn, umuman, adabiy, ilmiy, diniy asarlarga sharhlar bitilgan. Xalqning oson tushunishi uchun, albatta.

Endi bo'lsa, kommentariya tushunchasiga to'xtalsak, kommentariya lotincha so'z bo'lib, bizningcha izoh, sharh ma'nolarini beradi. Demak, kommentariy mavzusiga to'xtalar ekanmiz, shuni ham alohida aytish kerak, kommentariy ko'pincha bildirish, tushunturish, targ'ibot, tashviqot xususiyatlarida keladi. Ya'ni, siyosiy va ijtimoiy mavzulardagi sharhlarda targ'ibot, tashviqot yo'nalishi bilchamchi hisoblanadi. Sport va madaniyat mavzularidagi sharhlarda bo'lsa, bildirish, anglatish, tushuntirish xususiyatlari ustun turadi.

Sharhlash, faqat sharhlovchi, jurnalistning ko'rib turgan voqea-hodisasining og'zaki ifodalashdan tashqari, information, taxliliy, badiiy-publitsistik janrlardagi intervyu, reportaj, maqola, suhbat, xotira kabi janrlarni ham qabrab oladi. Shu xususiyati bilan boshqa jurnalistika janrlaridan ajralib turadi. Shu o'rinda yana bir fakt, dunyo informatsiya bozoridagi raqobat, keskin o'zgarishlar va rivojlanishlar natijasida, sharoit taqozosi bilan, bir necha janrlar vazifasini o'zida mujassam etgan va bajara oladigan Sharhlash jurnalistikasi vujudga kelgan. Albatta, boshqa janrlar kabi jamiyatda matbuot erkinligi, so'z erkinligi amalda bo'lgandagina sharhlash janri shakllanadi, o'zi mansub bo'lgan jamiyatning rivojiga, demokratik yuksalishiga xizmat qiladi.

Kommentariy haqida so'z borar ekan, jurnalistikamiz tarixida kommentariy-sharh asosan targ'ibot va tashviqot vositasi hisoblangani, yakkahokim mafkuraning biryoqlama ko'z qarashini ifodalashga xizmat qilgani ko'pchilikka ma'lum. Sharhlash jurnalistikasi bo'lsa biryoqlamalikni rad etadi. Bugungi kunda jamiyatni demokratlashish jarayoni boshlangan ekan, jurnalistika ham hayot bilan teng qadam tashlab, o'zgarib, birmuncha yangilanib bormoqda.

Sharhlash jurnalistikasi hozirda nimalarda ko'rinadi:

- Mavzuni tanlash;
- Mavzuga yondashuv;
- Syujet va kompozitani belgilash;
- Muammoni qo'yish;
- Faktlarni tahlil qilish va baholash;
- Xulosa chiqarish;

Endi sharhning asosiy turlariga to'xtalsak:

- Ochiq sharh;
- Pardalangan sharh;
- Kutilmagandagi sharh;
- OAVlarida sharh turlari;
- Matbuot sharhlari;
- Radiosharhlar;
- Televidenie sharhlari;
- Internet sharhlari;

Matbuot sharhlari - gazeta-jurnallardagi sharhlar va mualliflik sharhlari odan iborat. Ularning radio va televidenie sharhlaridan farqi juda oz o'quvchi o'qisa ham, omma hujjat sifatida ko'proq vaqt daomida foydalanadi.

Radio-televidenie sharhlari millionlarcha ommaga muhim mavzuni jonli faktlar va detallar, ishonchli-hayotiy ko'rinishlar vositasida tushuntirish, anglatishi bilan farqlanadi va ahamiyati ham juda katta hisoblanadi. Radio va televidenie sharhlari siyosiy, iqtisodiy, san'at, madaniyat, sport sharhlari kabi o'zaro turlarga bo'linishi bilan ahamiyatli.

Internet sharhlari tezkorligi, axborot va tahliliy jihatdan uyg'unlashuvi bilan ajralib turadi.

Ochiq sharh, nomidan ham ma'lum ochiq ko'rinib turgan voqea-hoqisa sharhlanadi. Angliya va AQSHda ochiq sharhdan deyarli foydalanishmaydi.

Pardalangan sharhda muallifi ko'rsatilmaydi, ammo bilinib turadi. Masalan, tahririyat sharhlari. Bunday sharhlarda ayni nashrning, ayni kanalning umumiy qarashin bildiriladi. Sharh natijasida biror muammo tug'ilsa, nashr javobgarlikni bo'yniga oladi.

Kutilmagandagi sharh biror voqea-hodisa yuz berishi bilan, o'sha daqiqalarda zarurat yuzasidan, hech bir tayyorgarlik ko'rmasdan, darhol yoziladigan sharh hisoblanadi. Kutilmaganda va pardalangan sharh bir-biriga yaqin turadi. Masalan, Xo'jayli tumanidagi bozorlarning birida yuz bergan yong'inda ham birdaniga zaruratdan tayyorlangandi.

O'zbekistonning eng taniqli siyosiy sharhlovchilari:

- Ibrohim Normatov
- Qobilbek Karimbekov

- Tursun Qoratoyev
- Sharofaddin To'laganov
- Abduvali Soibnazarov

Sharh haqida so'z ketar ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, reportaj, intervyuga o'xshab ketadi, ammo ijtimoiy va siyosiy hayotdagi, jahondagi eng muhim voqea-hodisalarni ommaga to'g'ri, tez va xolis tushunturib berishi bilan ajralib turadi. Sharh boshqa janrlarning, ya'ni informatsion janrlar: yangilik, xabar, hisobot, intervyu, reportaj, lavha, undan tashqari, tahliliy janrlar: korrespondensiya, maqola, taqriz hamda badiiy-publitsistik janrlar: ocherk, esse, feleton, pamfletdagi ayrim xususiyatlarini o'ziga qamrab olishi bilan boshqa janrlarga bog'liq hisoblanadi. Sharhda barcha janrlardagidek xususiyatlar foydalaniladi, mavzu tinglovchiga tushuntiriladi. Xabar janrida bo'lsa yagona hodisa bildiriladi, endi reportajda bo'lsa muhim hodisa yoki voqea jonli, tezkor, sof holda bildiriladi va ko'rsatiladi. Yozma manbaalarga tayanamiz, ocherk, voqea yoki hodisa obrazlar vositasida, hujjatlar, detallar orqali ko'rsatib, mavzu ochib beriladi. Matbuotda xalqaro sharh, ilmiy sharh, siyosiy sharh, gazeta sharhi, adabiy sharh, kino sharhi, teatr sharhi, sport sharhi ommaviylashgan bo'ladi. Bu sharh turlari mavzu va uning yoritilish shakliga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Gazetalardagi sharh iki xil bo'ladi:

- Tahririyat sharhi
- Mualliflar sharhi

Tahririyat sharhi – bosh muharrir sharhi yoki tahririyat sharhi shaklida bo'ladi. Asosan bosh muharrir yozadi. Uning tavsiyasiga ko'ra ham yoziladi.

Mualliflar sharhi – gazeta xodimi yoki jamoatchi muhbir tomonidan, ya'ni sohani biladigan muharrir yozadi. Uning tavsiyasiga ko'ra ham yoziladi.

XULOSA

Gazeta sharhida 5ta xususiyat bor:

- O'quvchida fikr uyg'ota oladigan va ijtimoiy-siyosiy hayotga faolroq aralashishga undaydi.
- Voqealikning eng muhimlarini bilib olishga, tushunishga ko'maklashadi;
- Kerakli axborotni tanlashga, erkin, tanqidiy yondoshuvga o'rgatadi;
- Qonun ustuvorligi, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatini, muammolarni adolatli hal etishni ko'rsatib turadi;
- Biryoqlama fikr-u qarashlar, qarorlar aks etishiga jamoatni ko'nikтира boradi.

Xulosa o'rnida aytish kerak, jurnalistika sohasida sharh janrining o'rni alohida. Ya'ni, boshqa janrlardagi barcha xususiyatlarni o'zida jam qiladi. Reportaj, intervyu, ocherk, tahliliy maqola xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Bugungi kunda sharhning, nafaqat sharhning, balki sharhlovchining

o'rnini alohida. Mamlakatimizdagi tele va radio kanallar, gazeta va jurnallarda, internet saytlarida sharhlarning berilishi aniq, sof, haqqoniy, ma'lumotlat to'la ifoda etgan holda tasvirlanadi. Yuqorida aytilganidek, mazkur janrda tayyorlanmasdan ham voqea yoki hodisa sharhlanadi. Bunday holatlarda sharhlovchining o'rnini bo'lak turadi. Demak, sharh bugungi zamonaviy jurnalistikamizning asosiy janrlaridan biri hisoblanadi va shunisi bilan insonlar, jamiyat hayotida ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Strelsov B.V, "Osnovi publitsistiki. Janri". Moskva 33-50 bet
2. Erik Fixtelius, "Jurnalistikaning 10 qoidasi". Toshkent-2002, 88-109 bet
3. Rendall D. "Universalniy Jurnalist", London-1988, 9-10 bet
4. Mo'minov F. "Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida", Toshkent-2000, 78-80 bet
5. Xudoyqulov M. "Jurnalistika va publitsistika", Toshkent-2010, 10-16 bet
6. Nurmatov A, To'xliyeva N. "Sharhlash jurnalistikasi", Toshkent-2013, 54-56 bet